

YUQUMLI KASALLIKLARDAN EHTIYOT SHART SUG'URTA QILISH MUHIM SHARTLARI

I. SUG'URTA HODISASI

1.1. Sug'urta muddatida, Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)da ko'rsatilgan yuqumli kasalliklar bilan kasallanishi tufayli Sug'urtalangan shaxs Tibbiy muassasaga murojaat qilishi va unga tibbiy xizmat ko'rsatilishi Sug'urta hodisasi hisoblanadi.

1.2. Sug'urtalangan shaxsning Sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan yuqumli kasallikka chalinganda yoki shu kasallik natijasida sog'lig'i izdan chiqqanda Sug'urtalovchiga 3 oy ichida xabar qilishi lozim.

1.2. Yuqumli kasalliklar - Virusli gepatit (sariq) "A", "B", "C" va Dizenteriya (ichburug') kasalliklaridan Sug'urtalovchi tomonidan javobgarlik olib borishi.

II. QUYIDAGILAR SUG'URTA HODISASI HISOBLANMAYDI

2.1. Sug'urtalangan shaxs Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)da ko'rsatilgan yuqumli kasalliklarga chalingan bo'lib, Tibbiy muassasaga murojaat qilmagan va Tibbiy xizmat olmagan bo'lsa.

2.2. Sug'urtalangan shaxsning Sug'urta shartnomasida ko'rsatilmagan yuqumli kasalliklar yoki shu kasalliklar oqibatida sog'lig'i izdan chiqsa.

2.3. Spirtli ichimliklar, narkotik moddalar va boshqa kuchli moddalarni iste'mol qilish natijasida Sug'urtalangan shaxs kasalliklarga chalinishi yoki jarohat olishi.

2.4. Noqonuniy harakatlar, shu jumladan o'zini joniga qasd qilish natijasida Sug'urtalangan shaxslarning sog'lig'iga zarar yetkazilishi (uchinchi shaxslarning noqonuniy harakati va tazyiqi ostida qilingan holatlar bundan mustasno).

2.5. Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining hisob raqamiga tushishdan oldin yoki Sug'urta javobgarlik boshlanishidan oldin Sug'urta qildiruvchi yuqumli kasallikka chalinsa.

2.6. Asab, ruhiy yoki onkologik kasalligi tufayli davolash dispanser hisobida turuvchilar hamda kasalligi bo'yicha I - guruh nogironlari, (olgan tan jarohati tufayli biror bir a'zosi amputatsiya qilinganlar bo'yicha II, III - guruh nogironlari bundan mustasno) surunkali kasallanadiganlar bilan Sug'urta shartnomasi tuzilmaydi.

III. SUG'URT PULINI OLISH UCHUN TAQDIM QILINADIGAN HUJJATLAR

Sug'urtalangan shaxs (Manfaatdor shaxs) yuqumli kasallikka chalinishi natijasida Tibbiy muassasada tibbiy xizmat olishi tufayli sug'urta tovonini olish uchun (yuqumli kasallikka chalingan kundan boshlab uch oy muddat ichida) Sug'urtalovchiga ariza va quyidagi hujjatlar bilan murojaat qilinadi:

- Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi Tibbiy muassasasining ma'lumotnomasi;
- Sug'urta polisi, FHDYO idorasi bergan o'lim to'g'risidagi guvohnomani nus'hasini;
- Vorislik huquqi to'g'risidagi guvohnoma nus'hasi va boshqalar;
- Manfaatdor shaxsning pasport nushasini.

Taqdim etilgan barcha hujjatlar muhrlangan, imzolangan va berilgan sanasi raqamlari bo'lishi shart.

Sug'urta muddati (javobgarlik) Sug'urtalovchini hisob raqamiga sug'urta mukofoti tushgan kundan 10 kundan keyin boshlanadi.

IV. TO'LOV MUDDATI

4.1. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta hodisasi bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni to'liq taqdim qilingandan keyin, Komissiya tomonidan hujjatlar o'rganib chiqiladi va 15 kun ichida sug'urta hodisasi yuz berganligi yoki yo'qligi to'g'risida dalolatnomani tuziladi. Sug'urta hodisasi yuz berganligi aniq bo'lsa, komissiya sug'urta tovonini miqdorini aniqlaydi hamda hodisa tan olinganligi haqida tuzilgan dalolatnomada aks ettiradi. Tan olingan hodisa bo'yicha sug'urta puli to'liq miqdorda to'lab beriladi.

4.2. Sug'urta tovonni dalolatnoma imzolangan kundan 5 bank kuni ichida Sug'urtalangan shaxsning (manfaatdor shaxsning) bankdagi omonat daftarchasiga yoki plastik kartochka hisob raqamiga uning yozma arizasiga binoan pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

4.2. Balog'at yoshiga yetmaganlarga ularning nomiga bankdagi omonatga pul o'tkaziladi va bu haqida homiylik va vasiylik tashkilotlariga xabar qilinadi.

4.3. Sug'urta qildiruvchining shartnomani (polisni) bekor qilish bo'yicha yozma murojaatiga ko'ra, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga shartnomaning o'tmagan muddatiga mutanosib ravishda sug'urta mukofotlari qaytarib beriladi. Bunda Sug'urtalovchining sug'urta ishini yuritish bilan bog'liq bo'lgan sug'urta mukofotining 25 foizi miqdoridagi xarajatlari qaytariladigan sug'urta mukofotidan chegirilib qolinadi.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs)ning majburiyati:

a) Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) tuzilayotganda yoki amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lgan, Sug'urta hodisasi bo'lishi ehtimolini va uni yuz berishi tufayli kutilayotgan zarar miqdori haqidagi ma'lumotlarni xabar qilish;

b) Sug'urta mukofotini o'rnatilgan muddatda va miqdorda to'lash;

d) Yuqumli kasallikka chalinganda yoki sog'lig'i izdan chiqqanda Sug'urtalovchiga darhol habar qilish;

e) Sug'urtalangan va Manfaaddor shaxslarga sug'urtalash Qoidalarini tanishtirish;

f) Sug'urtalovchiga Sug'urta hodisasiga ta'luqli bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim etish.

5.2. Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs)ning huquqlari.

a) Sug'urtalovchidan Sug'urta shartnomasi shartlari bo'yicha maslahat olish;

b) Sug'urta tovonni olish;

d) Manfaaddor shaxsni tayinlash;

e) Sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish uchun Sug'urtalovchiga ariza bilan murojaat qilish.

5.3. Sug'urtalovchining majburiyatlari

a) Sug'urta qildiruvchini Sug'urtalash Qoidalarini bilan tanishtirish;

b) Sug'urta mukofoti o'rnatilgan muddatda va miqdorda to'langanda hamda Sug'urtalovchini hisob raqamiga kelib tushgandan so'ng 5 kun ichida Sug'urta polisini berish;

d) Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta qildiruvchiga yoki Sug'urtalangan (Manfaaddor) shaxsiga Sug'urta tovonini to'lash.

5.4. Sug'urtalovchining huquqlari

a) Sug'urta qildiruvchi bergan ma'lumotlarni va Sug'urta shartnomasi shartlarini bajarilishini tekshirish;

b) Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urta tovonni miqdorini aniqlash bo'yicha kerakli hujjatlarni talab qilish;

d) Xolis ekspertiza o'tkazish;

e) Sug'urta qildiruvchining (Sug'urtalangan shaxsning) harakatlari shubha tug'dirgan holatlarda Sug'urta tovonini to'lashni kechiktirish;

f) Amaldagi Qoida va qonunchilikda belgilangan tartibda Sug'urta tovonini to'lashni rad etish;

g) Sug'urtalangan shaxslar Sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan yuqumli kasallik tashkilotning yoki biror bir shaxsning aybi bilan kasallansa Sug'urtalovchi aybdorga nisbatan da'vo bildirish;

h) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng Sug'urtalovchiga bila turib (sog'liq va Sug'urta xavfiga oid) yolg'on ma'lumotlar berganligi aniqlansa, Sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topish;